

IJTIMOIIY FANLAR

Nazirov Baxtiyor

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

b.nazirov@dtpi.uz

УДК: 796(091)(575.151)

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK FUTBOLI YUTUQLARI: TAHLIL VA NATIJALAR

Kalit so'zlar: milliy terma jamoa, Osiyo kubogi, Osiyo chempionlar ligasi, kar'era, "Fair play", futzal, "Globe Soccer Awards".

Annotatsiya. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, o'zbek futboliga davlat miqyosida e'tibor qaratildi. Respublikamizning har bir mintaqasida futbol infratuzilmasini rivojlantirish, jamoalar saviyasini o'stirish, yosh iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz mustaqillik yillarda sportning futbol turini yanada rivojlantirish, sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu farmon va qarorlarning ijrosi o'laroq yurtimiz futbolida istiqbolli o'zgarishlar amalga oshirildi. Futbolchilarni tayyorlash, tayyorgarlik tizimlarini takomillashtirish va ularning natijaviyligini taminlashga doir ishlarga alohida e'tibor qaratildi. Buning samarasida klublarimiz bilan birga, terma jamoalarimiz ham qit'a va xalqaro miqyosidagi musobaqalarda munosib ishtirok etib kelmoqda. Mazkur maqolada yurtimizda mustaqillik yillarida ommaviy sport turlari orasida ko'p sonli muhlislarga ega bo'lgan futbol sport turini yuksaltirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratilishi, shuningdek, mazkur davrda o'zbek futbol erishgan yutuqlari va natijalari atroflicha tahlil qilingan.

ДОСТИЖЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ФУТБОЛА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: АНАЛИЗ И ИТОГИ

Назирова Бахтиёр

Доктор философии (PhD) исторических наук

Денауского института предпринимательства и педагогики

b.nazirov@dtpi.uz

Ключевые слова: сборная команда, Кубок Азии, Лига чемпионов Азии, карьера, "Fair play", мини-футбол, "Globe Soccer Awards".

Аннотация. После сосредоточенный Узбекистаном независимости узбекскому футболу стало уделяться внимание на государственном уровне. В каждом регионе нашей республики сделанные последовательные меры по развитию футбольной инфраструктуры, повышению уровня команд, поддержке молодых талантов. За годы независимости нашей страны был принят ряд указов и постановлений в целях дальнейшего развития футбольного вида спорта и укрепления правовых основ отрасли. Согласно реализации этих указов и решений, в футболе нашей страны произошли многообещающие изменения. Особое внимание было уделено подготовке футболистов, совершенствованию систем подготовки и обеспечению их эффективности. Благодаря этому вместе с нашими клубами наши национальные сборные принимают участие в континентальных и международных соревнованиях. В данной статье в годы независимости рассмотрено создание нормативно-правовой базы популяризации футбола, имеющего большое количество поклонников среди популярных видов спорта

в нашей стране, а также достижения и результаты узбекского футбола в этот период. подробно анализируются.

ACHIEVEMENTS OF UZBEK FOOTBALL IN THE YEARS OF INDEPENDENCE: ANALYSIS AND RESULTS

Nazirov Bakhtiyor

Doctor of philosophy (PhD) in Historical sciences

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

b.nazirov@dtpi.uz

Keywords: national team, Asian Cup, Asian Champions League, career, "Fair play", futsal, "Globe Soccer Awards".

Annotation. After independence focused on Uzbekistan, attention began to be paid to Uzbek football at the state level. In each region of our republic, consistent measures were taken to develop football infrastructure, raise the level of teams, and support young talents. In the years of our country's independence, a number of decrees and decisions were adopted in order to further develop the football type of sport and strengthen the legal foundations of the field. According to the implementation of these decrees and decisions, promising changes were made in the football of our country. Special attention was paid to the training of football players, improvement of training systems and ensuring their effectiveness. As a result of this, together with our clubs, our national teams have been taking part in continental and international competitions. In this article, in the years of independence, the creation of regulatory and legal bases for the promotion of football, which has a large number of fans among popular sports in our country, as well as the achievements and results of Uzbek football in this period are analyzed in detail.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy sport turlari orasida futbolning ayricha oʻrni bor. Oʻzining jozibasi, ommabopligi, murosasiz kurashlarga boyligi bilan u soʻnggi yillarda millionlab yoshu qarining sevimli sport turiga aylandi. Hech bir inson yoʻqki, futbolga befarq boʻlsa yoxud hayotida bir marotaba boʻlsa-da, toʻp tepmagan boʻlsa. Mustaqillik yillari mamlakatimizda koʻplab sohalar qatori sportning ushbu turiga ham davlat miqyosida ahamiyat qaratila boshlandi. Prezident tashabbusi va rahbarligi ostida futbol infratuzilmasini rivojlantirish, yoshlarni ushbu sport turiga keng jalb etish, ayniqsa bolalar futbolini ommalashtirish orqali mamlakat futbolini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublikamizning har bir mintaqasi, chekka-chekka hududlarida oʻnlab inshootlar, futbol maktablari va akademiyalar barpo etilib, oʻsib kelayotgan yoshlarimiz uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Bugun ushbu maskanlarda oʻgʻil-qizlarimizning zamonaviy futbol sir-asrorlarini puxta oʻrganib kelayotgani, quvonarli hol albatta.

Taʼkidlash joizki, mamlakatimiz mustaqillik yillarda sportning futbol turini yanada rivojlantirish, sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 1996-yil 17-yanvarda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplari tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” hamda “Oʻzbekiston Respublikasida futbolni rivojlantirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorlari, 2006-yil 1-mayda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining

“O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 4-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5887-sonli Farmonlarini qabul qilinishi yurtimiz futboli va soha mutaxassislari uchun ulkan imkoniyatlarni yaratib berdi [5]. Ushbu farmon va qarorlarning ijrosi o‘laroq yurtimiz futbolida istiqbolli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Futbolchilarni tayyorlash, tayyorgarlik tizimlarini takomillashtirish va ularning natijaviyligini taminlashga doir ishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu boisdan mamalakatimizda mustaqillik yillarida futbolni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan ko‘p yillik tajribani tarix fanining yangi nazariy metodologiyasi nuqtai-nazaridan tadqiq qilish dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot usullari. Ushbu maqola tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy-tahlil va hududiy yondoshuvlar singari tarixiy metodlar asosida yoritilgan bo‘lib, unda mamlakatda futbol sport turini yuksaltirishning me‘yoriy-huquqiy asoslarini yaratilishi, shuningdek, mazkur davrda o‘zbek futboli erishgan yutuqlari va natijalari atroflicha tahlil qilingan.

Maqolaning ilmiy yangiligi. Maqolda o‘zbek futbolini mustaqillik yillarida rivojlantirish maqsadida sohaning huquqiy asoslarini yaratish va mustahkamlash bo‘yicha bajarilgan ishlar qabul qilingan farmon va qarorlar bilan dalillangan.

Mustaqillik yillarida o‘zbek futbolini yuksalishiga katta hissa qo‘shgan shaxslar faoliyati Mahmud Rahimov, Rauf Inilev, Server Jeparov, Eldor Shomurodov, Mirabror Usmonov hamda Ravshan Ermatovlar misolida yoritilgan.

Osiyo qit‘asi miqyosida futbol bo‘yicha eng nufuzli musobaqasi hisoblangan Osiyo chempionlar ligasida o‘zbek futboli sharafiga mamlakatning “Paxtakor”, “Bunyodkor” va “Nasaf” klublari himoya qilib kelayotgani aniqlangan.

Imkoniyati cheklangan futbolchilardan tashkil topgan O‘zbekiston amputantlar terma jamoasi erishayotgan yutuqlar mazkur jamoaning 5 marotaba (1990, 1991, 2007, 2010, 2012-yillarda) jahon birinchiligida tengsiz deb topilganligi bilan dalillangan.

Adabiyotlar tahlili.

O‘zbek futboli tarixini ilmiy tadqiq etish darajasini aniqlashda mavzuga oid adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini ikki guruhga ajratib tahlil etish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga sovet davrida mavzuga doir e‘lon qilingan ishlar, ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida mavzuga oid ishlarni kiritish mumkin. Birinchi guruh adabiyotlar sovet hukumati davrida yaratilgan adabiyotlar bo‘lib, ularda kommunistik mafkuraning ta‘siri yaqqol sezilib turadi. Mazkur guruhga N.A.Borshin, M.F.Is‘hoqov, N.V.Zisman, Yu.S.Sholomiskiy, R.Ismoilovlar tomonidan yaratilgan adabiyotlarni kiritish mumkin. Ushbu adabiyotlarda O‘zbekistonda ommaviy sport turlarining ayrim jihatlari tadqiq qilingan bo‘lib, unda futbol sohada qo‘lga kiritilgan yutuqlarga keng o‘rin berilgan holda muammo va kamchilik haqida hech qanday fikr bildirilmagan. Qolaversa, o‘rganilayotgan mavzuning umumiy jihatlari madaniy hayotning bir qismi sifatida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Ikkinchi guruh adabiyotlar mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqot bo‘lib, ushbu adabiyotlarda jismoniy madaniyat va sport rivoji umumiy jihatdan yoritilgan yoritilgan bo‘lib, bu tadqiqotlar ko‘proq ilmiy-ommabop xarakter kasb etadi. Ushbu guruhga A.Abdiev, A.K.Akromov, F.Xo‘jaev, Habibulla G‘ofur, , Sh.U.Abidov, M.S.Axmatova, H.Botirov, A.I.Talipdjanovalar tomonidan bajarilgan ishlarni misol qilishimiz mumkin.

Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport tarixiga bag‘ishlab dissertatsiyalar ham himoya qilindi. Ana shunday tadqiqotlar sarasiga B.Mambetov, Z.Abdullaeva va B.S.Nazirovlarning ilmiy ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Xullas, mustaqillik yillarida nashr qilingan adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar umumiy xarakterga ega bo‘lib, o‘rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini o‘zida aks ettirgan.

Natijalar va ularning muhokamasi. O‘zbekistonning futbol bo‘yicha dastlabki chempionatiga 1992-yildan start berildi. Bu bilan mamlakat futboli tarixida yangi sahifa ochildi. O‘sha yili mamlakat chempionatida oliy ligada 17 ta, birinchi ligada 18 ta, ikkinchi ligada esa 42 ta jamoa, jami 77 jamoa dastlabki chempionat bahslarida ishtirok etdi. Oliy liga bahslarida O‘zbekiston chempionligi unvoni uchun kechgan kurashlar asosan poytaxt jamoasi “Paxtakor”, shuningdek, Farg‘onaning “Neftchi”, Buxoroning “Nurafshon” hamda Jizzaxning “So‘g‘diyona” jamoalari o‘rtasida kechdi. Umuman olganda, hozirga qadar 30 marotaba o‘tkazilgan O‘zbekiston milliy chempionatlarida “Paxtakor”, “Bunyodkor”, “Neftchi”, “Navbahor”, MHSK (Markaziy harbiy sport klubi), “Do‘stlik”, “Lokomotiv” klublari chempionlikka sazovor bo‘lganlar [2, 64 b.].

O‘zbekistonda 1994-yil 21-mayda futbol federasiyasi (hozirgi O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi – O‘FA) tashkil topdi. Ko‘p o‘tmay, shu yili iyunda Xalqaro futbol federasiyalari uyushmasiga, dekabr oyida esa Osiyo futbol konfederatsiyasiga a‘zolikka qabul qilindi. O‘zbekiston futbolchilari Yaponiyada o‘tkazilgan XII Osiyo o‘yinlarida musobaqa qatnashchilariga rasman tanishtirildi.

Mana bir necha yildirki, milliy klublarimiz Osiyo chempionlar ligasi musobaqasida yurtimiz sharafiga himoya qilib kelishmoqda. Muxtasar aytganda, o‘zbek futboli tarixan qisqa vaqtda zalvorli yo‘lni bosib o‘tdi. Eng muhimi, ushbu sport turi yurtimizda eng ommabop, xalqchil o‘yinlardan biriga aylandi. O‘tgan vaqt mobaynida mamlakatda boshqa sohalar kabi sport sohasida, xususan uning futbol turida ham katta muvaffaqiyatlar qayd etildi.

O‘zbekiston futbol bo‘yicha xalqaro musobaqalarda ishtirok eta boshlagach dastlabki muvaffaqiyatlar ham uncha kuttirmadi. Yaponiyaning Xirosima, Onomiti va Miyosi shaharlarida bo‘lib o‘tgan 1994-yildagi yozgi Osiyo o‘yinlarida ishtirok etgan O‘zbekiston futbol terma jamoasi chempionlikni qo‘lga kiritdi. O‘zbek futbol jamoasi “V” guruhida Malayziya, Gonkong, Tailand va Saudiya Arabistonini mag‘lubiyatga uchratib, chorak finalga chiqishdi. Mazkur bosqichda Turkmaniston terma jamoasi ham yirik hisobda mag‘lub qilindi. Yarim final bahsida O‘zbekiston terma jamoasi Janubiy Koreya jamoasini yengib, final yo‘llanmasini qo‘lga kiritishdi. Musobaqaning final bahsida esa Xitoy terma jamoasi mag‘lub etilib, g‘oliblik qo‘lga kiritildi. Mazkur

musobaqa O'zbek futboli uchun xalqaro miqyosdagi dastlabki yirik musobaqa edi [6, 7 b.]. G'liblikni qo'lga kiritgan terma jamoa safida Mirjalol Qosimov, Azamat Abduraimov, Ilhom Sharipov, Sergey Lebedov, Igor Shkvirin, Andrey Fyodorov, Shuhrat Maqsudov, Abduqahhor Ma'rufaliev, Aleksandr Tixonov, Farhod Magomedov va boshqa bir qator iqtidorli futbolchilar bor edi [8, 10 b.].

Mustaqillik yillarida o'zbek futbolini yuksalishiga katta hissa qo'shgan shaxslardan biri Mahmud Rahimov bo'ldi. U futbolchilik faoliyatida katta muvaffaqiyatga erisha olmagan bo'lsada, murabbiy hamda tashkilotchisi o'zbek futbolida munosib o'rin egalladi. Uning murabbiylik faoliyatidagi yutuqlarining boshlanishi 1995-yilga to'g'ri keladi. Shu yili mutaxassis Toshkent viloyatining "Do'stlik" klubiga bosh murabbiy sifatida taklif qilindi va qisqa vaqt ichida jamoani kuchlilar qatoriga olib chiqdi. Erishilgan muvaffaqiyatlar e'tibordan chetda qolmadi. 1998-yilda Mahmud Rahimov O'zbekiston milliy terma jamoasida jamoa boshlig'i etib tayinlandi. Oradan bir yil o'tib, milliy terma jamoaga murabbiylik qila boshladi. Uning murabbiyligi ostidagi dastlabki musobaqa – Osiyo chempionati saralash bahslarida o'zbekistonliklar ajoyib natijalar ko'rsatishib, yetti uchrashuvdan oltitasini g'alaba bilan yakunladi. O'zbekiston terma jamoasi birinchi marotaba o'z tarixida FIFA reytingida 55-o'rinni egalladi [4, 12 b.]. Osiyo futbol konfederatsiyasi tomonidan 1999-yili Mahmud Rahimov "Yilning eng yaxshi murabbiyi" deb e'tirof etildi. Afsuski, avtohalokat oqibatida vafot etdi.

Shuningdek o'z faoliyatini futbolchilikdan boshlab, futbol murabbiyi sifatida davom ettirgan Rauf Inilevning o'zbek futbolida o'z o'rnini bor. Uning futbolchilik faoliyatini dastlab Toshkentning "Paxtakor" klubida boshlab, so'ngra "Start", Jizzaxning "Mehnat", "Zvezda" klublarida to'p surdi. O'z murabbiylik faoliyatini "Zvezda" klubida boshlagan R.Inilev 2006-yili mamlakat yoshlar terma jamoasini boshqardi. 2007-yildan boshlab milliy terma jamoaga murabbiy etib tayinlandi. Shu yili terma jamoa R.Inilev murabbiyligida Qatardagi Osiyo o'yinlarida qatnashdi [20].

O'zbekiston terma jamoasi 2007-yili Osiyo Kubogida qatnashib, chorak finalgacha yetib bordi. Ammo terma jamoa mazkur musobaqada chiroyli va mazmunli o'yinlar namoyish etdi. R.Inilev shu yili OFK tomonidan "Yilning eng yaxshi murabbiyi" deb e'tirof etildi [19].

O'zbek futbolining yanada rivoj topishida munosib o'rin tutgan Server Jeparov 1982-yil 3-oktabr sanasida Toshkent viloyati Chirchiq shahrida tug'ildi. Uning dastlabki futbolchilik faoliyati "Navbahor" jamoasida boshlandi. 2008-yili poytaxtning "Bunyodkor" jamoasiga ko'chib o'tgan Server mazkur jamoa tarkibida Osiyo chempionlar ligasining yarim finaliga yetib bordi. S.Jeparov 2008 va 2010-yillari O'zbekistonda, 2008 va 2011-yillarda Osiyoda ikki karra "Yilning eng yaxshi futbolchisi" deb e'tirof etildi [19].

Toshkentning "Bunyodkor" klubi sharafiga himoya qilgan Dostonbek Hamdamov 2015-yili "Osiyoning eng yaxshi yosh futbolchisi" deb tan olindi. D.Hamdamov O'zbekiston yoshlar terma jamoasi safida Yangi Zelandiyada o'tgan

Jahon chempionati bahslarida katta mahorat egasi ekanligini namoyish qila oldi [8, 12 b.]

Shu o'rinda bugungi kunda o'zbek futbol maktabidan yetishib chiqqan, jahonning nufuzli futbol jamoalarida to'p surayotgan, yurtimizdagi futbol muxlislarining faxri-g'ururiga aylangan Eldor Shomurodov faoliyatini alohida e'tirof etmoq joizdir. Surxon vohasidan yetishib chiqqan mashhur talantli yoshlardan biri Eldor 1995-yil 29-iyun kuni Jarqo'rg'on shahrida tavallud topdi. U 6 yoshdan boshlab futbolga qiziqqa boshladi. 11 yoshida Eldor Muborak shahrining "Mash'al" futbol klubi akademiyasida tahsil ola boshladi. 2014-yildan boshlab 19 yoshida klubning asosiy tarkibga jalb etildi va shu yili mavsumda 10 ta o'yinda maydonga tushdi va "Mash'al" O'zbekiston chempionatida beshinchi o'rinni egalladi. Shu vaqtdan boshlab Eldor O'zbekiston yoshlar terma jamoasiga jalb etila boshlandi [12]. 2015-yil boshida Eldor Toshkentning "Bunyodkor" klubi futbolchilari safiga kelib qo'shildi va u yerda 2017 yilning iyunigacha o'ynadi. Mazkur klub tarkibida 96 ta o'yinda maydonga tushib, 20 ta gol o'rgan (O'zbekiston Oliy ligasi, O'zbekiston kubogi va Osiyo chempionlar ligasida). "Bunyodkor" bilan birgalikda O'zbekiston kubogi finalchisiga aylandi va O'zbekiston chempionatining kumush medallarini qo'lga kiritdi [12].

2017-yilning iyul oyida Eldor Rossiyaning "Rostov" klubiga o'tdi va klub bilan 2,5 yillik shartnoma imzoladi. 2019-yilning may oyi oxirida "Rostov" Shomurodov bilan shartnomani uch yilga, 7 iyunda esa besh yilga uzaytirdi. 2019-yil avgust oyida u Premer-ligada oyning eng yaxshi futbolchisi deb e'tirof etildi. E.Shomurodov 2019-2020 yilgi mavsumda muvaffaqiyatli to'p surib, Rossiya chempionatining 28 uchrashuvida 11 ta gol o'rdi [13].

E.Shomurodov 2020-yil 1-oktabrda Italiyaning "Jenoa" klubiga o'tdi. Transfer summasi 7,5 million yevroni tashkil etdi. Futbolchi "Jenoa" klubi bilan 2024-yilning yoziga qadar shartnoma imzoladi [14]. Shu yili 19-oktabr kuni u "Verona"ga (0:0) qarshi o'yinda asosiy tarkibda maydonga tushib, A Seriyada debyut qildi [15]. 30-noyabr kuni A Seriyaning ikkinchi yarmida "Parma"ga qarshi uy uchrashuvida u "Jenoa" safida ilk golini urdi [16].

2021-yil 2-avgustda Eldor "Roma"ga o'tdi, shartnoma summasi 17,5 million evroni tashkil qildi. 2021-yil 19-avgust kuni Eldor yangi klubi safida Konferensiya ligasi saralash bosqichi pley-offida "Trabzonspor"ga qarshi o'yinda debyut qildi va u yerda o'zining ilk golini urdi va uchrashuv rimliklarning g'alabasi bilan yakunlandi [17].

O'zbek futbolidagi ko'plab muvaffaqiyatlar Mirabror Usmonov O'FF fa rahbar bo'lib turgan yillarda qo'lga kiritildi. Mazkur muvaffaqiyatlardan biri FIFAning "Fair play" sovrini qo'lga kiritilganligidir. Bu sovrin dunyo bo'yicha sanoqli davlatlar futboliga nasib qilgan. M.Usmonov halol futbolni targ'ib qiladigan va unga amal qiladigan federatsiyaga topshiriladigan mazkur sovrinni 2013-yil 7-yanvar sanasida Shveysariyaning Syurix shahrida qabul qilib oldi [19].

Mirabror Usmonov o'zbek futboliga rahbarlik qilgan davrda (2005-2017 yy) mamlakat futbol jamoalarining infratuzilmasiga alohida e'tibor qaratdi. Eski qolgan o'yingohlar qaytadan ta'mirlandi, yangi stadionlar qurildi. Toshkentning "Bunyodkor"

jamoasiga zamonaviy standartlar asosida stadion barpo etildi [7, 105-b.]. Shuningdek, viloyatlarda ham stadionlar qayta ta'mirlanib, zamonaviy qiyofa kasb etdi. Qarshi, Samarqand va Namangan shahridagi "Markaziy" stadionlarlar shular jumlasidan.

Mamlakat futbolining yetakchi jamoalaridan biri bo'lgan "Paxtakor" jamoasi ichki chempionat bahslarida ham, xalqaro miqyosdagi musobaqalarda ham muvaffaqiyatli ishtirok etib keldi. 2007-yili o'tkazilgan Hamdo'stlik chempionlar kubogida O'zbek futboli sharafiga himoya qilgan "Paxtakor" klubi guruh bahslarida muvaffaqiyatli qatnashib, birinchi o'rin bilan pley-offga chiqishdi. Chorak finalda "paxtakorchilar" Serbiyaning "OFK Belgrad" klubini, yarim finalda bahsida esa Moldaviyaning "Sherif" jamoasi mag'lub etildi. "Paxtakor" vakillari musobaqaning final uchrashuvida latviyaliklar bilan o'yinning asosiy va qo'shimcha daqiqalarida durang qayd etib, penaltilar seriyasida raqibidan ustun kelishdi va kubokni qo'lga kiritishdi [18].

Osiyo qit'asi miqyosida futbol bo'yicha eng nufuzli musobaqa bu shubhasiz – Osiyo chempionlar ligasi. Mazkur musobaqada o'zbek futboli sharafiga himoya qilishgan. Biroq hozircha birorta o'zbek klubi chempion bo'la olmagan. "Paxtakor" va "Bunyodkor" klublaru ikki martadan yarim final bahslariga qadar yetib bordi. "Paxtakor" vakillari 2002-2003 yili OChL ning guruh bahslarida birinchi o'rinni qo'lga kiritib, pley-offda Tailandning "Tero Sasana" klubi bilan kechgan bahsda ikki o'yin natijasiga ko'ra yutqazib qo'ydi [19].

OChL ning 2004-yilgi bahslarida "Paxtakor jamoasi" "Zob Ahan" (Eron), "Qatar SK" (Qatar) hamda "Riffa" (Bahray) jamolarini yengib, guruhdan birinchi o'rin bilan chiqishdi. Chorak finalda "Al Vahda" (BAA) jamoasi mag'lub etildi. Yarim final bahsida "Sonnarn Ilxva Chxonma" (Janubiy Koreya) jamoasi qarshiligini yengib o'ta olmadi [6].

Toshkentning "Bunyodkor" jamoasi ham 2005-yili OChLdagi debyut ishtirokning o'zidayoq yarim finalgacha yetib bordi. 2008-yili ham mazkur jamoa "Al Ittihad" (Saudiya Arabistoni), "Sepaxon" (Eron) va "Al Ittihad" (Suriya) klublari qarshiligini yengib, guruhda birinchi o'rinni qo'lga kiritishdi. Chorak finalda "Saypa" (Eron) jamoasi mag'lub etildi. Yarim final bahsida "Adelaida Yunayted" (Avstraliya) klubi bilan to'qnash kelib, musobaqadagi ishtirokini to'xtatishdi [19].

"Bunyodkor" jamoasi 2012-yili OChL bahslarida "Adelaida Yunayted" (Avstraliya), "Poxang Stilars" (Janubiy Koreya) va "Gamba Osaka" (Yaponiya) jamoalari bilan bir guruhdan joy olishdi. Pley-off yo'llanmasini muvaffaqiyatli qo'lga kiritgan toshkentliklar yarim final bahsida "Sonnarn Ilxva Chxonma" (Janubiy Koreya) jamoasini taslim etdi. Chorak finalda "Adelaida Yunayted" jamoasi bilan to'qnash kelgan "bunyodkorchilar" 2008 yilgi yarim final alamini olishdi. Finalda "Ulsan Xyonde" (Janubiy Koreya) jamoasiga qarshiligini yenga olmadi [19].

Qit'ada nufuzi jihatdan OChL musobaqasidan keyingi o'rinda turuvchi OFK kubogi bahslarida o'zbek futboli jamoalari bir marotaba bosh sovrinni qo'lga qiritishdi. 2011 yili mazkur musobaqaning guruh bahslarida "Dempo" (Hindiston), "Al Ansar" (Livan) va "Al Tilyal" (Yaman) jamoalari bilan bahslashgan Qarshining "Nasaf" klubi guruhdan birinchi o'rin bilan chiqishdi. Pley-offda "Al- Faysali" (Iordaniya) klubi

mag'lub etildi. Chorak finalda "Chonburi" (Tailand) jamoasi, yarim final bahsida "Al Vixdat" (Iordaniya) jamoasi taslim etildi. Finalni Qarshida o'tkazgan "nasafchilar" "El Quvayt" (Quvayt) klubini yengib, bosh sovrinni qo'lga kiritdi [18].

2012-yilda Eronda o'tkazilgan o'n olti yoshliklar o'rtasidagi Osiyo birinchiligida Dilshod Nuraliev murabbiyligidagi O'zbekiston terma jamoasi guruh bosqichida Hindiston, Suriya va Xitoy jamoalari bilan bahslashib, ikkinchi o'rin bilan chorak final yo'llanmasini qo'lga kiritishdi. Mazkur bosqichda Janubiy Koreya, yarim finalda Eron jamoasi qarshiligi yengib o'tildi. Musobaqaning final bahsida Yaponiya jamoasi jamoasi taslim etildi. Bosh sovrin o'zbekistonlik futbolchilarga nasib etdi [18].

Xitoyda 2018-yili 23 yoshgacha bo'lganlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi Ravshan Haydarov murabbiyligi ostida muvaffaqiyatli ishtirok etishdi. Guruh bosqichini ikkinchi o'rin bilan yakunlashgan o'zbekistonliklar chorak finalda Yaponiyani, yarim finalda Janubiy Koreya jamoasini, finalda Vetnam jamoasini mag'lub etib, bosh sovrin sohibiga aylandi [19].

Meksikada kechgan 2011-yilgi 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionati bahslarida va Turkiyada o'tkazilgan 2013-yilgi 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasidagi jahon chempionati bahslarida O'zbekiston terma jamoasi a'zolari guruh bahslarini muvaffaqiyatli o'tkazib, chorak final yo'llanmasini qo'lga kiritishdi [18].

O'zbek futboli yutuqlari haqida so'z borganda Ravshan Ermatov nomini alohida e'tirof etmaslikni iloji yuq. R.Ermatov jahon chempionati bahslarida jami 11 marotaba uchrashuvni boshqarib, mutloq rekordchiga aylandi. R.Ermatov 2010- yilda Janubiy Afrikada kechgan jahon birinchiligida 5 ta bellashuvda, 2014-yili Braziliyada bo'lib o'tgan jahon chempionatida 4 ta bellashuvda, 2018-yili Rossiyada o'tkazilgan dunyo birinchiligida esa 2 ta bellashuvda hakamlik qildi [21].

R.Ermatov jahon chempionatlaridan tashqari boshqa nufuzli musobaqalarda ham asosiy o'yinlarni boshqardi. Jumladan, unga 2008-yili klublar o'rtasidagi jahon birinchiligida chorak va final uchrashuvini boshqarish ishonib topshirilgan. 2011-yili mazkur musobaqaning 3-o'rini uchun kechgan bahsda va finalda hakamlik qildi. 2017-yili yana shu musobaqaning ikkinchi bosqichidagi o'yinlarda hakamlik qildi. 2013-yili Konfederatsiyalar kubogida bir o'yin unga ishonib topshirildi. FIFA referisi hisoblangan Ravshan Ermatov xizmatlari munosib e'tirof etildi. Dunyo miqyosidagi "Globe Soccer Awards" sovrini 2015 yili O'zbekistonlik futbol hakamiga topshirildi [21].

Imkoniyati cheklangan futbolchilardan tashkil topgan O'zbekiston amputantlar terma jamoasi jahon futbolida o'z nufuziga ega. Mazkur jamoa 5 marotaba (1990, 1991, 2007, 2010, 2012-yillarda) jahon birinchiligida tengsiz deb topilgan[22].

O'tgan davr mobaynida futzalda ham O'zbekiston terma jamoasi katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishdi. 1999-yildan e'tiboran o'tkazilib kelinayotgan Osiyo qit'asi birinchiligi O'zbekistonga 3 marotaba ishonib topshirildi. Mazkur bahslarda o'zbekistonlik futzalchilar finalga qadar yetib kelishdi. Futza bo'yicha o'tkazilgan qit'a birinchiliklarida O'zbekiston terma jamoasi 3 marta 3-o'rinni egallashgan. [23].

Hozirgi kunga qadar futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi jami 312 marotaba rasmiy va o'rtoqlik uchrashuvlarini o'tkazgan bo'lib, undan 150 tasida g'alaba qozongan, 58 tasida durang o'ynagan holda, 104 tasida mag'lubiyatga uchragan [20].

Xulosalar

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, o'zbek futboliga davlat miqyosida e'tibor qaratildi. Shuni alohida aytib o'tish joizki, istiqlool tufayli futbolimizga yangicha ruh, shukuh kirib keldi. Islohotlarning muhim va tadrijiy bosqichi boshlandi. Respublikamizning har bir mintaqasida futbol infratuzilmasini rivojlantirish, jamoalar saviyasini o'stirish, yosh iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. Buning samarasida mamlakat futbol jamoalari bilan birga, terma jamoa a'zolari ham qit'a va xalqaro miqyosidagi musobaqalarda munosib ishtirok etib kelmoqda. Bu haqda gap ketganda, o'smirlar va yoshlar terma jamoamizning Osiyo va Jahon chempionatlaridagi muvaffaqiyatli ishtirokini alohida e'tirof etish joiz. Faqatgina, kelajakda mamlakat futboli oldida turgan eng muhim vazifalardan biri, milliy terma jamoaning jahon birinchiligi bahslarining yakuniy bosqichida ishtirok etishiga erishishdir. Bugungi kunga qadar futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi sakkiz marotaba jahon birinchiligining saralash bahslarida ishtirok etib, muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Mazkur muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo'lgan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish o'zbek futboli mutasaddilari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdiev A. Yangi asrning ilk yilida o'zbek sporti. // Sog'lom avlod uchun. – 2001. №12. 45 b.
2. Abdullaeva Z.A. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning shakllanish va rivojlanish tarixi (1991-2006). Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2009. – 175 b.
3. Kurbanov Z.A. Organizatsiya uchebno-trenirovochnix protsessov futbolistov v usloviyax Uzbekistana. – T., 2000.
4. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. – T., 2012.
5. Nazirov, B. S. (2021). Establishment of a new legal system in the field of physical culture and sports in Uzbekistan in 2017–2020. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1081-1084.
6. Nazirov, B. S. (2021). MUSTAQILLIK YILLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING TARIXIY TAHLILI. VZGLYAD V PROSHLOE, (SI-3).
7. Nazirov, B. (2022). O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. Scienceweb academic papers collection.
8. Nurimov Z.R., Kurbanov Sh.O. Futbol: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 161 b.

9. Habibulla G'ofur. Denov futboli.-Toshkent: «Muharrir».- 2010. – 62 b.
- 10.O'zbekiston Milliy arxiv,I 2310-fond,1-ro'yxat,656-ish,74-varaq.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5887-sonli Farmoni. www.lex.uz
- 12.https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A8%D0%BE%D0%BC%D1%83%D1%80%D0%BE%D0%B4%D0%BE%D0%B2,%D0%AD%D0%BB%D0%B4%D0%BE%D1%80%D0%90%D0%B7%D0%B0%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%BE%D0%B2%D0%B8%D1%87#cite_note-4
- 13.<https://web.archive.org/web/20201017124753/http://www.fc-rostov.ru/press/news/13888>
- 14.<https://www.championat.com/football/news-4152535-dzhenoa-objavil-o-perehode-eldora-shomurodova.html>
- 15.https://www.eurosport.it/calcio/serie-a/2020-2021/serie-a-hellas-verona-genoa-0-0-le-pagelle_sto7958090/story.shtml
- 16.https://www.corriere.it/sport/20_novembre_30/genoa-parma-1-2-doppietta-gervinho-l-uzbeko-shomurodov-non-basta-rossoblu-a323aec4-3355-11eb-af7b-c18cb439eaf5.shtml
- 17.<https://www.asroma.com/en/news/2021/8/eldor-shomurodov-completes-roma-move>
- 18.<https://kun.uz/news/2017/11/16/uzbek-futboli-akida-10-fakt>
- 19.<https://sports.uz/news/view/mustaqillik-yillarida-ozbek-futboli-yutuqlari-01-09-2019>
- 20.<http://ufa.uz/>
- 21.<https://uzreport.news/football/ravshan-irmatov-ofitsialno-zavershil-kareru-referi-fifa>
- 22.<https://championat.asia/oz/news/ozbekiston-amputantlar-terma-jamoasi-mashgulotlarga-kirishdi-osiyo-chempionati-yurtimizda-otkazilishi-mumkin-bosh-murabbiy-bilan-intervyu>
- 23.https://uz.wikipedia.org/wiki/Futzal_bo%CA%BByicha_O%CA%BBzbekiston_milliy_terma_jamoasining_natijalari